

“O‘zavtosanoat” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi ““O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-16-sonli Farmon topshiriqlari ijrosi bo‘yicha

MA'LUMOT

Sentabr holatiga

T/r	Topshiriq mazmuni	Ijroga mas'ul vazirlik, idora	Ijro muddati	Ijro holati
1.	33-band. Belgilab qo'yilsinki: Davlat dasturini so'zsiz, sifatli va to'liq amalga oshirish barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi navbatdagi ustuvor vazifasi hisoblanadi; davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari Davlat dasturida har chorak kesimida tegishli yo'nalish va hudud bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish, nazarda tutilgan chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish va zarur normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini o'z vaqtida va puxta ishlab chiqish uchun shaxsan javobgar bo'ladi.	Barcha vazirlik va idoralar “O‘zavtosanoat” AJ	2025-yil davomida	Bajarilmoqda. “O‘zavtosanoat” AJning 2025-yil 20-fevraldagi 17-030-son buyurug‘iga muvofiq ““O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid Davlat dasturi”ni so'zsiz, sifatli va to'liq amalga oshirish bo'yicha barcha tarkibiy bo'linma boshliqlari va tizim korxona rahbarlarining ustuvor vazifasi qilib belgilandi. Shuningdek, dasturda belgilangan topshiriqlar va maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda mas'ul xodimlar shaxsan javobgar etib belgilandi.
2.	4-ilova, 44-band. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan jamoat transporti ehtiyojlari uchun transport vositalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish. Mexanizm: Respublikamizda elektrobus, avtobus va mikroavtobuslar ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'rganib, mahalliy tadbirkorlar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilish hisobiga ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish loyihalarini boshlash.	“O‘zavtosanoat” AJ, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, Andijon viloyati hokimligi, Toshkent shahar hokimligi	2025-yil yakuniga qadar	Bajarilmoqda. Mazkur topshiriq ijrosi bo'yicha bugungi kunda “SamAuto” MCHJ QK ishlab chiqarish quvvatlarida uzunligi 7-9 metr bo'lgan 3 xil rusumdagi avtobuslar ishlab chiqarilmoqda (LF60, HD50, HC45). Shu bilan birga, ayni paytda gaz va elektrda (elektrobus) harakatlanadigan 9 metrli past polli shahar avtobuslarini ishlab chiqarish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 2024-yilning IV choragida ushbu avtobuslarning 6 ta (3 ta CNG va 3 ta EV) prototiplari ishlab chiqarildi va hozirgi kunda validatsiya sinovlari o'tkazilmoqda. Sertifikatlashtirish sinovlarining qariyb 80 foizi yakunlandi. Seriyali ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun texnologik uskunalar joriy yilning may oyida zavodga yetkazib berildi. Hozirgi vaqtda, 68 ta payvandlash konduktorlari o'rnatildi.

T/r	Topshiriq mazmuni	Ijroga mas'ul vazirlik, idora	Ijro muddati	Ijro holati
				Shu bilan bir qatorda, iyul oyida avtobuslarning interer va ekstereri uchun plastik detallarni ishlab chiqarishga mo'ljallangan texnologik qolip va maxsus jihozlarning 80% yetkazib berildi. Seriyali ishlab chiqarishni 2025-yilning ikkinchi yarmida boshlash rejalashtirilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida tijorat avtomobillari, shu jumladan mikroavtobuslar ishlab chiqarish bo'yicha 2025-yilda Samist Auto mahalliy korxonasi va Xitoyning Beiqi Foton Motor Co., Ltd kompaniyasi bilan memorandum imzolangan bo'lib, 2025-yil o'zida Foton View CS2 mikroavtobuslarini sinovli ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 2025-yilda 140 dan ortiq mikroavtobus ishlab chiqarilishi rejalashtirilib joriy yil 12-sentyabrga qadar 48 ta mikroavtobus shartnoma asosida Samavto zavodida yig'ib berildi. Kelgusida ushbu tijorat avtomobillarini to'liq siklda ishlab chiqarish loyihasi bo'yicha tegishli qaror loyihasi yuzasidan ishlar amalga oshirilmoqda.
3.	4-ilova, 61.1-band. Sinov laboratoriyalar bazasini rivojlantirish bo'yicha investitsiyalarni keng jalb qilish. Mexanizm: 1. Quyosh panellar, sovitkich va muzlatkichlar hamda qishloq xo'jaligi texnikalari ag'darish burchagi sinovini amalga oshiruvchi zamonaviy sinov laboratoriyalari mavjud rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va hamkorlikni yo'lga qo'yish	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, “O'zeltexsanoat” uyushmasi, “O'zavtosanoat” AJ	2025-yil davomida	Bajarildi. Rossiya davlatining “НИИ ИТ и СП” ilmiy tadqiqot markazining sinov laboratoriyasi va Rossiyaning “NAMI” instituti huzuridagi avtopoligon sinov laboratoriyalari hamda Xitoy davlatining “Chjentyan Shenke Technology Co Ltd” sinov laboratoriyalarida mavjud ag'darish uchun stendlar o'rganildi. Natijada, Xitoylik hamkorlar bilan kelishuvga erishildi. Shuningdek, Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan “SamAuto” MCHJda Yaponiyaning Isuzu kompaniyasi tomonidan o'rnatilgan ag'darish burchagi sinovini amalga oshiruvchi laboratoriya va uskunalari o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligining

T/r	Topshiriq mazmuni	Ijroga mas'ul vazirlik, idora	Ijro muddati	Ijro holati
				“UzTest” DUK korxonasi bilan hamkorlikda laboratoriya tashkil etish bo'yicha kelishuv imzolandi.
4.	4-ilova, 61.2-band. Sinov laboratoriyalar bazasini rivojlantirish bo'yicha investitsiyalarni keng jalb qilish. Mexanizm: 2. Mazkur laboratoriyalarni respublikada tashkil etish uchun talab etiladigan uskunalar ro'yxatini shakllantirish	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, “O'zeltexsanoat” uyushmasi, “O'zavtosanoat” AJ	2025-yil yakuniga qadar	Bajarildi. “O'zavtosanoat” AJ huzuridagi “TTZ” MCHJ tomonidan qishloq xo'jaligi texnikalarini ag'darish burchagini aniqlash uchun uskunani tayyorlash yuzasidan uskunalar ro'yxati shakllantirildi va xarid qilish ishlari olib borildi. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tasarrufidagi Piskent tumanida joylashgan sinov laboratoriyasi hududiga joylashtirish va sozlash ishlari olib borilmoqda.
5.	4-ilova, 61.3-band. Sinov laboratoriyalar bazasini rivojlantirish bo'yicha investitsiyalarni keng jalb qilish. Mexanizm: 3. Quyosh panellar, sovitkich va muzlatkichlar hamda qishloq xo'jaligi texnikalari ag'darish burchagi sinovini amalga oshiruvchi zamonaviy sinov laboratoriyalarini tashkil etish	Texnik jihatdan tartibga solish agentligi, “O'zeltexsanoat” uyushmasi, “O'zavtosanoat” AJ	2025-yil yakuniga qadar	Bajarildi. “O'zavtosanoat” AJ huzuridagi “TTZ” MChJ tomonidan qishloq xo'jaligi texnikalarini ag'darish burchagini aniqlash uchun uskunani tayyorlash yuzasidan uskunalar ro'yxati shakllantirildi va xarid qilindi. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi tasarrufidagi Piskent tumanida joylashgan sinov laboratoriyasi hududiga joylashtirish va sozlash ishlari olib borildi. Bugungi kunda uskunalar to'liq ishga tushirilgan bo'lib, tashkil etilgan laboratoriyada qishloq xo'jaligi texnikalarini ag'darish burchagini aniqlash sinovlari o'tkazilmoqda.